

SMTIdagi amerikalik ekspertlar bilan uchrashuv

Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutida Amerikaning tashqi siyosat bo'yicha Kengashi (ATSK) vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida O'zbekiston-Amerika munosabatlarining rivojlanish istiqbollari, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi muhim masalalar muhokama qilindi.

Amerikaning tashqi siyosat bo'yicha Kengashi Prezidenti German Pirchner Amerika tomoni Afg'oniston va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ochiqlik va yaxshi qo'shnichilikka asoslangan siyosat olib borayotgan O'zbekiston bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishga jiddiy qiziqish bildirayotganini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, ATSK Prezidenti Amerika tashqi siyosatida Markaziy Osiyoning ro'li oshib borayotganini ham alohida qayd etib o'tdi. Uning fikricha, mintaqada ro'y berayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar, ilmiy doira vakillari va ekspertlar tomonidan jiddiy e'tibor qaratilishiga sabab bo'lmoqda.

Uchrashuv yakunida, amerikalik mutaxassislar ATSK ning SMTI bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga tayyor ekanligini bildirdilar.

